

Usmon Yusupov



Usmon Yusupov

(1900 yil 1 mart, Farg'ona tumanidagi Kaptarxona g'ishlog'i – 1966 yil 7 may, Toshkent)

(1937-1950)

Davlat va siyosat arbobi. Mehnat faoliyatini 1916 yil Qovunchi (hoz. *Yangiyo'l shahri*)dagi paxta tozalash zavodida ishchilikdan boshlagan. Toshkent binokorlar uyushmasi raisi, kasaba uyushmalari Toshkent okrugi kengashi raisi (1926-28). O'zbekiston Kompartiyasi MK kotibi (1928-31), VSSPS O'rta Osiyo byurosi raisi (1931-34). O'zbekiston SSR Oziq-ovqat sanoati xalq komissari (1936-37), *O'zbekiston Kompartiyasi MK 1-kotibi* (1937-50). SSSR Paxtachilik ministri (1950-53), O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti raisi (1953-54), Mirzacho'ldagi "4-Boyovut" va "2-Boyovut" s-zlari va Yangiyo'l tumanidagi «Xalqobod» agrar-sanoat birlashmasi direktori (1955-66).

Yusupov respublikaga rahbar bo'lgan yillarda O'zbekistonda xalq hashari yo'li bilan yirik suv inshootlari (*Katta Farg'ona kanali, Kattaqo'rg'on suv ombori* va b.) qurilgan. 2-jahon urushi davrida mamlakat g'arbidan ko'chirib

keltirilgan korxonalarni ishga tushirish, yangilarini qurish, frontni oziq-ovqat, kiyim-kechak bilan muntazam ta'minlash, o'zbekistonliklarni fashizmga qarshi kurashga safarbar qilish, urush tufayli uy-joy va boshpanasiz qolgan aholi hamda etim qolgan bolalarga mehribonlik va insonparvarlik qilishda Yusupov bosh-qosh bo'lgan. U o'z siyosiy faoliyati davrida imkoniyat doirasida O'zbekiston xalqi manfaatlarini himoya qilishga intilgan bo'lishiga qaramay ommaviy qatag'on siyosatida (1937-39) Markaz farmoyishlarini bajarishga majbur bo'lgan. Toshkentdagi Chig'atoy qabristoniga dafn etilgan. Katta Farg'ona kanali, Farg'ona tumanidagi qishloq, respublikadagi bir necha maktab, ko'cha, shirkat xo'jaligiga Yusupov nomi berilgan. Yangiyo'l shahrida uy-muzeyi bor, haykali mavjud.

2023-12-20 11:25:28